

CHAT NUTQIDA EMOJILAR ETIKETI

Majidova Maftuna Samad qizi

Yangiyo‘l tumani 26-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7184955>

Annotatsiya. Agar siz smartfon orqali xabarda yoki ijtimoiy tarmoqlardagi virtual suhbatlarda tuyg‘uni ulashmoqchi bo‘lsangiz, demak, siz allaqachon yuragingiz, bosh barmog‘ingiz, kaftingiz yoki sariq baxtli yuzingizdan foydalangansiz. Yaqinda Google qidiruvni SMS yoki chatda eng ko‘p terilgan so‘z so‘z emas, balki qizil yurak dizayni ekanligini aniqladi. Ushbu maqola orqali siz shu kabi emojilarning qo‘llanilish etiketi bilan tanishish imkoniga ega bo‘lasiz.

Kalit so‘zlar: emoji, kulgich, norasmiy do‘stona yozishma, ishbilarmonlik-tadbirkorlik yozishmalar, facebook, Instagram, whatsapp, post.

ЭМОДЗИ ЭТИКЕТ В ЧАТЕ

Аннотация. Если вы хотите поделиться чувством в сообщении на смартфоне или в виртуальных чатах в социальных сетях, то вы уже использовали свое сердце, большой палец, ладонь или желтое счастливое лицо. Недавний поиск в Google показал, что наиболее часто искомое слово в тексте или чате — это не слово, а дизайн с красным сердцем. Благодаря этой статье у вас будет возможность ознакомиться с этикетом использования таких смайликов.

Ключевые слова: эмодзи, смайлик, неформальная дружеская переписка, деловая переписка, фейсбук, инстаграм, ватсан, пост.

EMOJI ETIQUETTE IN CHAT

Abstract. If you want to share a feeling in a message on your smartphone or virtual chats on social networks, then you have already used your heart, thumb, palm or yellow happy face. A recent Google search revealed that the most frequently searched word in text or chat is not a word, but a red heart design. Thanks to this article, you will have the opportunity to familiarize yourself with the etiquette for using such emoticons.

Keywords: emoji, emoticon, informal friendly correspondence, business correspondence, facebook, instagram, whatsapp, post.

KIRISH

Klaviaturada muqobil sifatida paydo bo‘ladigan barcha rang-barang rasmlar emojilar deyiladi.

Muloqot faqat og‘zaki yoki yozma so‘zlar bilan bog‘liq emas, chunki biz og‘zaki bo‘lmagan holda ham muloqot qilamiz, ya’ni tilni ishlatmasdan. Aniqrog‘i, mimikamiz, imo-ishoralarimiz, tana tilimiz va ovoz ohangimiz orqali. Bizning muloqotimiz kundan-kunga raqamli bo‘lib bormoqda. Biz internet tarmoqlarida elektron pochta xabarlarini yozamiz va suhbatlashamiz: WhatsApp, Fb, Instagram yoki Snapchat va shu kabi va hokazolar. Haqiqiy hayotda so‘z yoki og‘zaki bo‘lmagan holda ifodalashimiz mumkin bo‘lgan narsalar emojilar va qisqa matnlar bilan almashtiriladi. Bu xabarni jo‘natuvchi shaxs matnga hissiyat qo‘sadi va tushunmovchiliklarning oldini oladi. Ko‘pchilik buni emojilarsiz ham qila olishini aytadi, ammo his-tuyg‘ularingiz so‘zlardan ko‘ra kulgichlar orqali yaxshiroq ifoda topadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Emojilardan quyidagi hollarda foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Norasmiy do'stona yozishmalarda.

Sariq kulgili yuzlar shaxsiy suhbatda mos keladi, bu yerda siz o'z kayfiyatningiz haqida unchalik ko'p ma'lumot bermaysiz. Kulgichlar yordamida siz hazilga kulasiz, hamdard bo'lasiz, bir -biringizga yuzingizni qaratasiz. Bu erda his –tuyg'ular ikki shaxsga ham tegishli.

2. Tuyg'ular to'lib toshib, so'zlar yetmasa.

Ba'zida, hayotimizda juda muhim voqeа sodir bo'lganda, his –tuyg'ular bizni qamrab oladi, shunda biz yorilib ketamiz. Keyin biz Facebookda hissiyotli post yozamiz yoki Instagramda ko'zni qamashtiradigan fotosuratni joylashtiramiz va uni kulgili yoki emotsiyaga to'la kulgichlar bilan bezatamiz. Kimgadir, albatta, yoqmaydi, lekin endi nima, ichingizdagи barcha yorqin hislarni bo'g'ib qo'yishi mumkin? Asosiysi, jo'sh urgan his–tuyg'ularning ommaviy namoyishini suiiste'mol qilmaslik: sizning barq urayotgan jo'shqin tuyg'ularingiz boshqa shaxslarning m=nafsoniyati yoki shaxsiyatiga tegmasligi kerak.

3. Ish yozishmalarida xabarni ajratib ko'rsatish uchun (oldindan kelishuv asosida)

TADQIQOT NATIJALARI

Bu shoshilinch e'tiborni talab qiladigan muhim xabarlarni ko'rinaligan qilishning juda oddiy va qulay usuli. Emojilar bu maqsadlar uchun juda qo'l keladi. Ammo siz kompaniyangizda qaysi holatlar shoshilinch deb hisoblanishini va buning uchun qaysi emojidan foydalanishni oldindan kelishib olishingiz kerak.

Bunda haddan oshirmaslik juda muhim: agar sizda favqulodda xabarlar uchun bitta, ikkinchisida shoshilinch savollarga, uchinchisida muhim yangiliklar uchun, va yana boshqa-boshqa narsalar uchun emojilardan foydalanaveradigan bo'lsangiz, yaqin orada barcha rasmiy yozishmalar hech kim qaramaydigan archa bayramiga aylanadi.

Quyidagi holatlarda emojilarni qo'llashdan ehtiyoj bo'lish lozim:

1. Ishbilmonlik-tadbirkorlik yozishmalarida.

Ish hissiyotlar uchun joy emas. U yerda siz xotirjam, mas'uliyatli va professional bo'lishingiz talab qilinadi. Agar siz xayrixohligingizni ta'kidlamoqchi bo'lsangiz yoki vaziyat haqida xavotirda ekanligingizni bildirmoqchi bo'lsangiz ham, bu maqsadlar uchun emojilar o'rniga chiroyli so'zlardan foydalaning.

2. Chet elliklar bilan muomala qilganda.

Bunda emojilarning turli madaniyat vakillari uchun turlicha ma'no kasb etishi ko'zda tutiladi. Ya'ni sizning madaniyatningizda kulgich smayligi boshqa bir yurt vakili uchun haqorat ma'nosini yoki masxara ma'nosini anglatishi mumkin.

3. G'alati his –tuyg'ularni muhokama qilganda.

MUHOKAMA

Tuyg'ular ham aslida jiddiy biznesdir. Agar siz shunchaki emas, balki qalbingizni ochayotgan yoki biror tuyg'uni baham ko'rayotgan bo'lsangiz, so'zlar his-tuyg'ularingizni va tajribangizni kulgichlardan ko'ra aniqroq etkazadi. "Siz men uchun dunyodagi har kimdan ko'ra azizroqsiz" – bu ketma-ket o'ndan ortiq yurakni anglatadi. Ammo, sizda faqat bitta yurak bor, shuning uchun uning o'zini bering.

XULOSA

Esingizda bo'lsin, emojilar - bu asosiy tarkibiy qism emas, balki ziravordir. Xabaringizga ta'sirchanlik berish uchun siz ulardan juda oziga va saralanganiga muhojsiz.

REFERENCES

1. Adam Lind. Chat language (In the continuum of speech and writing). – Linnaeus University, 2012
2. Safarov SH., Toirova G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlil asoslari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 2007.;
3. To‘rayeva D.A. O‘zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiyunsurlarning milliy korpusini yaratish asoslari// Herakd pedagogiki nauka i praktyka (wydanie specjalne). <http://www.ejournals.id/index.php/HP/article/view/175/161> Volume-1, № 2. – B. 100-106.
4. <https://www.philol.msu.ru/~RKIEF/INDEX>.